OLIMPIYA VA PARALIMPIYA O'YINLARIGA ZAMONAVIY SPORT TAYYORGARLIGINING DOLZARB MUAMMOLARI

Asqarov Muhriddin Alisher o'g'li
Namangan viloyati Uychi tumani
1-son sport maktabi direktor o'rinbosari

Annotatsiya: Ushbu maqolada Olimpiya va paralimpiya o'yinlariga tayyorgarlik bosqichida yuzaga keladigan muammolarning pedagogik yechimlari ko'rsatilgan bo'lib bunda, amaliy tavsiyalar ko'rsatilgan

Kalit so'zlar: Farmakalogiya,litsenziya, divitalogiya,XOQ, MOQ, gender, dopin, texnik.

Barcha sport turlarini rivojlantirish orqali yozgi Olimpiya va Paralimpiya o'yinlarida qatnashish huquqini beruvchi litsenziyalar sonini ko'paytirish, 2024-yil Parij shahrida (Fransiya) bo'lib o'tadigan XXXIII yozgi Olimpiya va XVII Paralimpiya o'yinlariga sportchilarimizning har tomonlama tayyorligi va muvaffaqiyatli ishtirokini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi prizidenti SH.M.Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan qarordan qisqacha iqtibos keltirib o'taman..

Sport ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish va raqamlashtirish, olimpiya va paralimpiya dasturlariga kiritilgan sport turlari bo'yicha yuqori natijador va olimpiya sportchilar zaxirasini yaratish, litsenziyalar sonini sezilarli darajada ko'paytirish,sport menejmentini takomillashtirish, har bir bo'g'inni auditdan o'tkazish va xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, sport farmakologiyasi, psixologiyasi, tibbiyoti, diyetologiyasini chuqur tahlil qilish va o'rganish, ular natijasida ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish, Olimpiya va Paralimpiya o'yinlarida ishtirok etish uchun talabgorlar orasida ayol sportchilar ulushini oshirish, O'zbekiston sportchilari o'rtasida gender tenglikni ta'minlash, sport bazalari va inshootlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, zamonaviy standartlarga javob beradigan yangi sport obyektlarini barpo etish, ulardan maqsadli va samarali foydalanish, mamlakatimizda belgilab berilgan paralimpiya harakatini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini amaliyotga to'liq tatbiq etish, jismoniy imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan shaxslarning sport faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida belgilangan maqsadli ko'rsatkichlar:

Olimpiya o'yinlari bo'yicha 244 ta dasturda ishtirok etish hamda 26 ta sport turlari bo'yicha 103 ta litsenziyani, shu jumladan 8 ta istiqbolli olimpiya sport turlari bo'yicha (badminton, stol tennisi, qoyani zabt etish, suv polosi, sinxron suzish, suvga sakrash, ot sporti, triatlon) 31 ta dasturda ishtirok etish va litsenziyalarni qo'lga kiritishni.

Paralimpiya o’yinlari bo’yicha 476 ta dasturda ishtirok etish hamda 12 ta sport turlari, shu jumladan bochcha, parastol tennisi, parakamondan otish, auditorlik tashkilotini jalb qilish va auditdan o’tkazish bilan bog‘liq xarajatlarni O‘zbekiston sport delegatsiyasining 2021-yilda Tokio shahrida (Yaponiya) bo‘lib o‘tgan XXXII yozgi Olimpiya o‘yinlariga tayyorgarlik ko‘rishi va ishtirok etishi xarajatlari smetasi doirasida iqtisod qilingan mablag‘lar hisobidan amalga oshirish.

Ma’lumot uchun aytish mumkunki, Xalqaro olimpiya qo‘mitasi tomonidan 2020-yil dekabrda qabul qilingan qarorga asosan 2024-yildagi Olimpiya o‘yinlarida ilk bor gender tenglik ta’minlanib, erkaklar hamda ayollar uchun qatnashish huquqini beruvchi litsenziyalar soni teng ravishda belgilab berildi. ikki oy muddatda aholi o’rtasida gender tenglik tamoyillarini “mahallabay” tizimi asosida taniqli sportchilar ishtirokida targ’ib qilish dasturini ishlab chiqsh va amalga oshirish to’grisida topshiriq berildi. Unga ko’ra Olimpiya o’yinlarida ishtirok etish uchun talabgorlar o‘rtasida ayol sportchilar ulushini oshirish choralarini ko‘rsh. Bunda, ularning erkak sportchilar sonidan farqi +/-3 foizgacha bo’lishini ta’minlanishi ko’zda tutilgan.

Dasturda nazarda tutilgan hamda manfaatdor vazirlik, idora va tashkilotlarning zimmasiga yuklatilgan vazifa va topshiriqlar o‘z vaqtida, sifatli va to‘liq bajarilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin, Dasturga muvofiq amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlarning ijrosini har chorakda muhokama qilish va kamchiliklarni o‘z vaqtida bartaraf etish choralarini ko‘rib borsin;

Hozirgi davrda XOQ rahbarligida Olimpiya kongresslari va sessiyalarida olimpiya harakati muammolari muhokama qilinadi, ularni butunlay hal qilishga qaratilgan chora- tadbirlar ko‘riladi. Zamonaviy olimpiya harakatida juda ko’p muammolar mavjud bo‘lib, ulardan eng dolzarb muammolar qatorida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

XOQ, MOQ, XSF faoliyatida hamkorlik muammosi, professional sport va tijorat sporti muammosi, irqchilik va millatchilik muammosi,sportda doping iste’mol qilish muammosi,sportda haqqoniy hakamlik qilish, sportda terorizm va tajavuzkorlik muammosi, olimpiya sport inshootlari muammosi, olimpiya o’yinlari dasturi muammosi, olimpiya o’yinlari shaxarini tanlash muammosi, olimpiya ta’limi muammosi kabilar.

Hozirgi kunda xalqaro olimpiya harakatining ko’p muammolari hal qilingan. Jumladan, dastlabki Olimpiya o'yinlarida bo’lgan va millatchilik muammosi sportda kamsitish holatlariga qarshi olib borilgan keskin kurash natijasida bartaraf etilgan.

Olimpiya o‘yinlari bilan bog’liq bo'lgan irqsiyosatining uchta asosiy shakl-larini aniqlashgan.

Birinchisi, ishtirokchi mamlakatlar o ‘rtasida institutsional irqchilik mavjud bu xususan, 1904-yilgi Sent-Luis va Antropologiya kunlari va 1936-yilgi Berlin va ariyalik irqni va natsistlar rejimini ustunligini isbotlashga urinish o’yinlarda yaqqol ko’rinib turgan. Ikkinchisi, irqchilikni yengib o’tish va unga norozilik bildirish imkoniyati bu yerda, 1968-yil mexiko ajraloib turadi. Uchinchisi, etnik kelib chiqish, irq va sport yutuqlari o’rtasidagi munosabatlar. 2000-yilgi Sidneydagi Olimpiya o’yinlarida 200 metrlik sprintning finalida g’olib bo’lgan Kostas Kenderisning fotosuratini talabalarga ko’rsatilgan. U talabalardan fotosuratdagi qanday belgilar o’xshamaganligini so’ragan. Deyarli barcha talabalar oq tanli sprinter qora tanli sportchilar oldida birinchi kelgan degan fikrni bildirishgan. Qora tanli sportchilarning yengil atletikada erishgan yutuqlari, boshqa olimpiya sport turlaridagi yetarli bo’lmagan yutuqlar kabi an’anaviy tomosha bo’lib qolgan.

Olimpiya ta’limi muammosi XX – asrning 90- yillarida paydo bo’lib, olimpizm g’oyalari va olimpiya tamoyillari asosida aportchilarda yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirish orqali hal qilinmoqda. Bunday vazifa olimpiya madanyati qadryatlarini egallash usullari yordamida hal etiladi. Ma’naviy barkamol va jismoniy sog’lom insonni tarbiyalashning muhim vositasiga aylangan sport olimpiya g’oyalari va tamoyillarini targ’ib etishga xizmat qilmoqda.

Professional sport muammosi Olimpiya xartiyasi bo’yicha hal qilingan. 1980-yillarida professional sportchilar olimpiya o’yinlariga kiritilmagan, chunki P.de Kuberten tomonidan ishlab chiqilgan tamoyillar bo’yicha Olimpiya o’yinlari faqat havaskorlik sportini rivojlantirishga qaratilgan.bugungi kunda sport o’yinlari va musoboqa qoidalarida katta farqi bo’lmagan ayrim sport turlari bo’yicha professional sportchilar Olimpiya o’yinlariga kiritiladi.

Hulosa o’rnida aytishimiz mumkinki O'zbekiston Rio Yozgi Olimpiadasini o'zi uchun rekord sondagi - ja'mi 13 ta medal bilan yakunladi**.**O'yinlarda qayd etgan bu kabi natijasi bilan qolgan barcha Markaziy Osiyo davlatlarini ham ortda qoldirib ketdi. O'zbekiston XXXI Rio Yozgi Olimpiada O'yinlarida ja'mi 70 nafar olimpiyachisi bilan ishtirok etdi. Pridentimiz hamda hukumat tomonidan qabul qilingan qaror va chora tadbirlar kelgusida sportchilarimiz uchun Olimpiyada cho’qqilarini zabt etishlari uchun dasturi amal bo’lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

7. F.A. Asqarov. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. Darslik. Namangan 2023. 106-120- betlar.
8. A. A. Asqarov. Jismoniy tarbiya va sport. Darslik. Namangan 2024. 421-423-betlar
9. Jones, G. (2006). What is this thing called coach education? *European Journal of Sport Science, 6*(2), 101-114.

10. Nash, C. (2008). *Positive sport parenting.* Human Kinetics.
11. Alisher o’g’li A. A. et al. Bolalar jismoniy tarbiyasida qo’llaniladigan metodlarning nazariy asoslari //Miasto Przyszłości. – 2024. – T. 44. – C. 584-586.

alsevich V.K., Lubisheva L.I. Noviye texnologii formirovaniya fizicheskoy kulturi shkolnikov // Problemi sovershenstvovaniya fizicheskogo vospitaniya uchashixsya obsheobrazovatelnix shkol: Sb. rabot uchastnikov Mejdunarod.